

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish boshkarmasining asosiy funksional vazifalari

Vazir direktiva, farmoyish va buyruqlari, vazir birinchi o‘rinbosarining buyruqnoma va farmoyishlari asosida topshirilgan vazifalarni bajarish bo‘yicha boshqarma faoliyatini olib boradi;

boshqarma xodimlarining funksional vazifalari va bo‘limlarning nizomlarini tasdiqlaydi;

boshqarmaning faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha axborot-tahlil hujjatlarini tayyorlab, vazir hamda vazir birinchi o‘rinbosariga taqdim etadi;

boshqarma bo‘limlari boshliqlarining faoliyatini tizimli ravishda olib boradi hamda vazifalarini aniqlab beradi;

boshqarma rejalarini ishlab chiqib, tasdiqlatish uchun vazir birinchi o‘rinbosariga taqdim etadi.

O‘rnatilgan tartibda quyidagi takliflarni kiritadi:

boshqarma xodimlarini lavozimga tayinlash, o‘zgartirish va bo‘shatish, taqdirlash va mukofotlash, harbiy unvonga tavsiya qilish, shartnoma asosidagi harbiy xizmatchilarni xizmatdan bo‘shatish, boshqarma xizmat tartib-intizomini saqlashni ta‘minlash;

boshqarma tizimini takomillashtirish;

vazirlikning hay‘at yig‘ilishlari va tezkor majlislarda ko‘rib chikish uchun masalalar kiritish.

Vazir yoki vazir birinchi o‘rinbosarining topshirig‘i bo‘yicha joylardagi davlat yoki xo‘jalik boshqaruvi, davlat hokimiyati organlariga vazirlikka taalluqli masalalarni taqdim etadi;

tarkibiy tuzilmalar va qutqaruv xizmatlari rahbarlarining xizmat-jangovar faoliyat xolati bo‘yicha hisobotlarini tinglaydi;

shaxsiy tarkibning psixologik-ruhiy xolati, xizmat sifati, tarbiyasi va siyosiy yetukligini o‘rganib boradi;

boshqarmaga topshirilgan vazifalarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi;

vazirlik rahbariyati topshirig‘i bo‘yicha vakolatlarga ega bo‘ladi;

bosh boshqarma boshlig‘i xizmat joyida bo‘lmagan taqdirda (xizmat safari, xizmat ta‘tili yoki kasallik sababli), uning vazifalarini bajaradi.